

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGINING MA’NAVIYAT VA
MA’RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI “TURON” TEATR STUDIYASI FAOLIYATINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 13-dekabrda 5413-F-son farmoyishiga muvofiq hamda teatr san‘ati yordamida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlari shaxsiy tarkibida fuqarolik va harbiy burchga sadoqat, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish, harbiy jamoalarda sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni va harbiy intizomni yanada mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Madaniyat vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi “Turon” teatr studiyasini O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi “Turon” harbiy teatri” davlat muassasasiga (keyingi o‘rinlarda Teatr deb ataladi) aylantirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Teatrning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Oldingi tahrirga qarang.

milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi asarlarini, shuningdek, o‘zbek xalqining boy madaniyatini, buyuk ajdodlarimizning merosini, urf-odatlarimizni, ota-bobolarimiz hamda zamondoshlarimizning yurt tinchligi va osoyishtaligi yo‘lidagi jasoratini madh etuvchi, xalq va armiya birligini, Vatanga muhabbat va Vatanga qasamyodga sodiqlikni tarannum etuvchi badiiy asarlarni targ‘ib qilish;

(2-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi 179-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.03.2020-y., 09/20/179/0350-son)

o‘zida kelayotgan yosh avlodning ma‘naviyatini va ularning san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, yoshlarga o‘zbek milliy teatr san‘ati tarixi asoslarini, teatr san‘ati yordamida madaniy-ma‘rifiy va ijodiy-badiiy sohalarida erishilgan yutuqlarni tanishtirish;

yoshlarning ijodiy faolligini rivojlantirish, o‘zida kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, teatr san‘atiga yangi usullarni milliy ruhga moslashtirgan holda joriy etish;

o‘zida vatanparvarlik, insoniylik, milliylik, buyuk ajdodlarimizning tarixini aks ettirgan spektakllarni namoyish etish;

turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, gastrollar, tanlovlar, taniqli san‘at arboblari bilan uchrashuvlar va forumlar, rejissor va aktyorlar uchun mahorat darslari va o‘quv treninglarini tashkil etish, yoshlarga jahon madaniyati va san‘atining yorqin namunalarini tanishtirish orqali ularning ma‘naviy o‘zlashiga ko‘maklashish;

davlat va jamiyatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari obro‘sinini, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida harbiy xizmatning jozibadorligini oshirishda ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlari shaxsiy tarkibini Vatanga muhabbat, konstitutsion va harbiy burchga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashish, harbiy xizmatchilarda yuksak ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarining ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish, ularni badiiy ijodga faol jalb qilish.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

Teatrning badiiy-rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi 458-son qarori bilan tasdiqlangan Konsert tashkilotlari va saroylari (teatr-konsert saroylari)ning ma‘muriy-boshqaruv va badiiy-rahbar xodimlari mehnatiga

haq to‘lash bo‘yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarining uchinchi guruhi, ijodiy (artist) xodimlari mehnatiga haq to‘lash esa — ushbu qaror bilan tasdiqlangan Teatrlar artist xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarining drama teatri xodimlari uchun belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi;

Teatr faoliyatini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi uchun ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, chipta sotish va pulli xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan budjetdan tashqari mablag‘lar, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

bir oy muddatda Teatrning tuzilmasi, shtatlar jadvali hamda ustavini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

Teatrni Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Aviasozlar ko‘chasi, 1/1-uy manzilidagi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining binosiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi muntazam ravishda tajribali teatr ijodkorlari va mutaxassislarini jalb etgan holda Teatr ijodiy jamoasiga muassasa faoliyatini yo‘lga qo‘yish, moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, shu jumladan repertuarlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirish, spektakllarning ta‘sirchanligini kuchaytirish yuzasidan uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda teatr va musiqa san‘atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonni amalga oshirish masalalari haqida” 1995-yil 28-oktabrdagi 415-son qaroriga 1-ilovaning “Toshkent shahri” **kichik bo‘limiga** “Turon” harbiy teatri davlat muassasasi” so‘zlari qo‘shilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri B.N. Kurbanov va O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri B.S. Sayfullayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 3-may,
370-son

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.05.2019-y., 09/19/370/3063-son; 24.03.2020-y., 09/20/179/0350-son)